

## YUZ MUSHAKLARINING GIPERTONIYASI VA GIPOTONIYASI: KLINIK VA FIZIOLOGIK JIHATLAR

*Umarova Fayzixon Nozimjon qizi*

*Ahmadjonova Dilraboxon Ilhomjon qizi*

*CAMU xalqaro tibbiyot universiteti 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy raxbar: Alieva Gavharoy Abdumutalipovna Central Asian Medical*

*Univercity fiziologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuz mushaklarining gipertoniysi va gipotoniyasi klinik hamda fiziologik jihatlari ko'rib chiqilgan. Mushak tonusining oshishi yoki kamayishi insonning mimika, chaynash va boshqa funksiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Gipertoniyaga mushaklarning taranglashishi, gipotoniyaga esa mushak zaifligi xos bo'lib, har ikkala holatning sabablari, belgilari, fiziologik mexanizmlari va davolash usullari ilmiy asosda yoritilgan. Mushak tonusining buzilishiga olib keluvchi nerv-mushak mexanizmlari, stress, yallig'lanish jarayonlari va boshqa omillar batafsil tahlil qilingan. Maqola yuz mushaklarining tonusi bilan bog'liq klinik holatlarning diagnostikasi va davolashida yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** gipertoniya, gipotonija, yuz mushaklari, mushak tonusi, mimika, nerv-mushak mexanizmlari, fiziologik jarayonlar, bell paralichasi, chaynash funksiyasi, asetilxolin.

**Резюме:** В статье рассмотрены клинико-физиологические аспекты гипертонии и гипотонии мышц лица. Повышение или понижение мышечного тонуса оказывает существенное влияние на мимику, жевательные и другие функции человека. Гипертония характеризуется мышечным напряжением, а гипотония – мышечной слабостью, а причины, симптомы, физиологические механизмы и методы лечения обоих состояний объяснены на научной основе. Подробно анализируются нервно-мышечные механизмы, стрессы, воспалительные процессы и другие факторы,

вызывающие нарушения мышечного тонуса. Статья помогает в диагностике и лечении клинических состояний, связанных с тонусом мышц лица.

**Ключевые слова:** гипертония, гипотония, мышцы лица, мышечный тонус, мимика, нервно-мышечные механизмы, физиологические процессы, поясничный паралич, жевательная функция, ацетилхолин.

**Abstract:** This article reviews the clinical and physiological aspects of facial muscle hypertonia and hypotonia. Increased or decreased muscle tone has a significant impact on facial expressions, chewing, and other functions of a person. Hypertonia is characterized by muscle tension, while hypotonia is characterized by muscle weakness, and the causes, symptoms, physiological mechanisms, and treatment methods of both conditions are scientifically explained. The neuromuscular mechanisms, stress, inflammatory processes, and other factors leading to muscle tone disorders are analyzed in detail. The article will help in the diagnosis and treatment of clinical conditions associated with facial muscle tone.

**Keywords:** hypertension, hypotonia, facial muscles, muscle tone, facial expressions, neuromuscular mechanisms, physiological processes, Bell's palsy, chewing function, acetylcholine.

Yuz mushaklari insonning muloqot qilishida, hissiyotlarni ifodalashida va turli fiziologik funksiyalarni bajarishda muhim ahamiyatga ega. Yuz mushaklari tonusining me'yordan og'ishi ikki xil holatda namoyon bo'lishi mumkin: gipertoniyaga (tonusning oshishi) yoki gipotoniyaga (tonusning kamayishi). [1] Ushbu maqolada ushbu holatlarning klinik va fiziologik jihatlari, shuningdek, davolash va oldini olish usullari yoritiladi.

Yuz mushaklarining gipertoniyasi. Gipertoniyasi – bu mushak tonusining me'yordan oshishi, mushaklarning haddan tashqari taranglashishi va bo'shashmasligi holatidir. [2]

Klinik belgilari:

-Yuzning doimiy tarang ko'rinishi.

- Yuz ifodalari chegaralangani sababli hissiyotlarni aniq ifodalay olmaslik.
- Mimika mushaklarida qattiqlik, og'riq va noqulaylik.
- Nutq va chaynash faoliyatining buzilishi.
- Ko'z qovoqlarining to'liq yopilmasligi yoki og'izning to'liq ochilmasligi.

Ushbu holatni kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

1. Nerv tizimi buzilishlari. Markaziy yoki periferik nerv tizimi shikastlanishi (masalan, serebral falaj, Bell paralichasi). [3]
2. Stress va psixologik omillar. Yuz mushaklarining haddan tashqari zo'riqishi hissiy stress natijasida yuzaga keladi.
3. Yallig'lanish jarayonlari. Yuz nervining nevriti gipertoniya olib kelishi mumkin.

Fiziologik mexanizmlari quyidagilar. Nerv impulslarining uzluksiz va kuchli uzatilishi mushaklarning haddan tashqari qisqarishini keltirib chiqaradi. Asetilxolin ortiqcha ajralib chiqishi yoki mushak retseptorlarining sezgirlingining oshishi mushak tonusini kuchaytiradi.

Yuz mushaklarining gipotoniyasi. Gipotoniyasi – bu mushak tonusining pasayishi, mushaklarning zaifligi va funksional qobiliyatining cheklanishi holatidir.

Klinik belgilari. Yuz mushaklarining "osilib qolishi", yuz simmetriyasining buzilishi, hissiyotlarni ifodalay olmaslik, chaynash va nutq jarayonlarida qiyinchilik, ko'z qovoqlari yoki og'iz burchaklarining tushib qolishi. [4]

Bularni kelib chiqish sabablari:

1. Nerv shikastlanishi. Yuz nervining falaji yoki shikastlanishi mushak tonusini pasaytiradi.
2. Asab-mushak kasalliklari. Myasthenia gravis yoki polinevropatiya kabi kasalliklar gipotoniyaga sabab bo'ladi. [7]
3. Metabolik va oziqlanish buzilishlari. Vitamin va mineral yetishmovchiligi mushaklarning zaiflashishiga olib keladi.

Nerv impulslarining etarli darajada uzatilmasligi yoki mushak retseptorlarining sezgirligining kamayishi mushaklarning qisqarish qobiliyatini pasaytiradi. Asetilxolin miqdorining kamayishi esa mushak faoliyatining susayishiga olib keladi. [5,6]

Ushbu holatni klinik va fiziologik taqqoslaganimizda quyidagi davolash usullari mavjudligini ko'ramiz. Gipertoniya uchun: [3,4]

1. Fizioterapiya: Massaj va issiqlik terapiyasi mushaklarning bo'shashishiga yordam beradi.

2. Dori-darmonlar: Mushak bo'shashtiruvchi dorilar (masalan, botulotoksin inyeksiyalari).

3. Psixoterapiya: Stressni boshqarish texnikalari.

Gipontoniya uchun: [8,9]

1. Jismoniy terapiya: Mushaklarni kuchaytirishga qaratilgan mashqlar.

2. Oziqlanishni yaxshilash: Vitamin va mineral yetishmovchiliginibartaraf etish.

3. Elektr simulyatsiya: Mushaklarning qisqarishini stimulyatsiya qilish uchun elektr terapiyasi.

Xulosa o'rinda shuni takidlash mumkin-ki yuz mushaklarining gipertoniysi va gipontoniysi nerv-mushak tizimining nozik muvozanatini buzadigan muhim klinik holatlardir. Ular yuz ifodalari va fiziologik funksiyalarini cheklab, inson hayot sifatiga sezilarli ta'sir qiladi. Har ikkala holatda ham erta tashxis qo'yish va to'g'ri davolash usullarini qo'llash yuz mushaklarning normal faoliyatini tiklash uchun muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ganong, W. F. - Tibbiyot fiziologiyasi asoslari (25-nashr). New York: Lange Medical Books. Sahifalar: 134–140.
2. Borodina, O. V., va boshqalar. - Neyrofiziologiya va klinik nevrologiya asoslari. Moskva: Medicina nashriyoti, 2015. Sahifalar: 223–230.
3. Zaitsev, A. P. - Insult va uning mushak-tonik sindromga ta'siri. Moskva: Praktika nashriyoti, 2018. Sahifalar: 156–165.

4. Kandel, E. R., Schwartz, J. H., Jessell, T. M. - Nerv tizimi: printsiplar va amaliyotlar. Sahifalar: 315–325.
5. Kiseleva, L. N. - Yuz va jag‘ sohasining funksional fiziologiyasi. Moskva: GEOTAR-Media, 2017. Sahifalar: 85–92.
6. WHO Reports - Global Burden of Neurological Disorders. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti. Sahifalar: 18–25.
7. Gipertoniyaning klinik belgilari va fiziologik mexanizmlari – Ganong, W. F. va Kandel, E. R. asarlaridan.
8. Yuz mushaklarining gipotoniyasi haqida – Borodina, O. V. va Zaitsev, A. P. tadqiqotlaridan.
9. Asetilxolin va nerv-mushak uzatish mexanizmlari – Kandel, E. R. kitobidan.
10. Fizioterapiya va dori vositalarining ta’siri – WHO Reports va Kiseleva, L. N. asarlaridan.